

**IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA DAVLAT
BYUDJETNING XARAJATLARI TAHLILI
(MADANIYAT VA SPORT XARAJATLARI MISOLIDA)**

*TDIU MMT-94 guruh
Tolibboyev Suxrob,
Tilloyev Ravshan,
Abduhamidov Jasur*

Mustaqillik yillarida xalqimizning boy madaniy merosini qayta tiklash, jismonan sog'lom, ma'nan yetuk va har tomonlama barkamol shaxslar jamiyatini barpo etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi.

Aholining madaniy va estetik ehtiyojlarini yanada to'la qondirishga, teatr, musiqa, tasviriy san'at hamda boshqa san'at turlarini rivojlantirishga, xalqimiz tarixi va bugungi hayotining eng yorqin sahifalarini, mamlakatimizning erkin demokratik taraqqiyotini aks ettiruvchi asarlar yaratishda ijodiy jamoalarga har tomonlama yordam ko'rsatishga alohida e'tibor qaratildi. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish bo'yicha tizimli va aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Nufuzli xalqaro musobaqalarda O'zbekiston sharafini munosib himoya qilish va yuksak marralarni zabt etishga qodir mahoratli sportchilar tayyorlashning samarali tizimi yaratildi.

Shu bilan birga, mavjud davlat boshqaruvi tizimi madaniyat va sportni rivojlantirish muammolarini kompleks hal etish, shuningdek mazkur sohalarda davlat siyosatini samarali amalga oshirishni to'liq darajada ta'minlash imkonini bermaydi. Zimmasidagi vazifalar ko'lami kengligi va ahamiyati kattaligiga qaramay, Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan davlat boshqaruvi organlari va mahalliy hokimiyat organlari bilan faol hamkorlik ta'minlanmayapti, uning faoliyati esa ko'pincha madaniy-ommaviy va sport tadbirlarini o'tkazish bilangina cheklanib qolmoqda.

Madaniy-ma'rifiy va sport-sog'lomlashtirish muassasalari, obyektlari va inshootlarining moddiy-texnik bazasini yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalari hamon o'z yechimini topgan emas. Madaniyat va sport sohasida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi zamonaviy talablarga javob bermaydi.

		1-chorak	6 oylik	9 oylik	yillik
II. XARAJATLAR (MAQSADLI JAMG'ARMALARSIZ) - JAMI		59 033,9	129 101,4	201 274,3	281 097,4
1.	Ijtimoiy xarajatlar	28 241,5	64 419,3	98 493,4	137 246,8
1.1	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari	26 369,2	58 086,6	87 205,5	122 348,7
	shundan:				
1.1.1	ta'lim	13 039,5	30 091,4	42 894,2	61 220,3
a.	maktabgacha ta'lim	2 544,8	5 222,5	8 346,9	11 723,0
b.	umumiy ta'lim	8 565,9	20 888,9	27 927,8	39 682,6
a.	kadrlar tayyorlash	1 928,8	3 979,9	6 619,6	9 814,7
1.1.2	sog'liqni saqlash	6 680,2	14 618,1	22 689,5	31 066,6
1.1.3	madaniyat va sport	951,4	2 279,5	3 784,9	5 330,2
1.1.4	fan	358,3	751,0	1 167,8	1 774,1

1-jadval. 2023-yil bo'yicha davlat byudjeti xarajatlar taqsimoti¹(mln so'm)

Ushbu jadvaldan ko'rish mumkinki, madaniyat va sport xarajatlari 2023-yil holatiga nisbatan 5330,2 mln.so'mni tashkil qilgan. Shundan yarim yillik xarajatlarni ko'rib chiqsak 2279,5 Ijtimoiy xarajatlar davlat byudjeti xarajatlarining asosiy qismini tashkil qiladi.

2024-yilda davlat budjetidan Madaniyat vazirligiga 1,1 trln so'mdan ko'proq mablag' ajratish rejalashtirilmoqda. Vazirlik xarajatlari orasida davlat buyurtmasiga asosan milliy kino mahsulotlarini yaratish, Toshkent xalqaro kinofestivalini o'tkazish kabi bandler mavjud.

O'zbekistonda 2024-yilgi davlat budjetidan Madaniyat vazirligiga 1 trln 100 mlrd 445 mln 300 ming so'm ajratilishi rejalashtirilmoqda. Bu haqda Iqtisodiyot va moliya vazirligi e'lon qilgan "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi qonun loyihasining respublika budjetidan birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilariga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari bo'yicha [ma'lumot berilgan](#).

¹ [Iqtisodiyot va moliya vazirligi \(imv.uz\)](#)

T/р	Кўрсаткичлар	Сумма
4.	Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги	1 100 445,3
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	820 445,3
	шундан:	
	ривожлантириш дастурлари учун харажатлар	149 500,0
	болалар мусиқа ва санъат мактаблари ҳамда маданият марказларини миллий чолғу асбoblari билан таъминлаш учун харажатлар	7 500,0
	давлат buyurtmasiga asosan milliy kino mahsulotlarini yaratish uchun харажатлар	105 000,0
	milliy seriallar ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun respublika miqyosida faoliyat yurituvchi telekanallarga ajratiladigan subsideyalar	12 000,0
	"Ipak yo'li durdonasi" Toshkent xalqaro kinofestivalini o'tkazish uchun харажатлар	10 000,0
	xorijiy kinokompaniyalar tomonidan O'zbekiston hududida kino ishlab chiqarish xarajatlariining bir qismini qoplash uchun харажатлар	5 000,0
	шу жумладан qayta taqsimlanadigan mablaglar:	
	Samarqand viloyatida ommaviy-madaniy tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq харажатлар	10 000,0
	obyektlarini loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	280 000,0

2-jadval. 2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida²gi qonun loyihasi²

Ajratilgan mablag'ning 820 mlrd so'mdan ko'prog'i joriy xarajatlarga yo'naltirilishi kutilmoqda. Bunday xarajatlarga quyidagi bandlar kiradi:

- rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar — 149 mlrd 500 mln so'm;
- davlat buyurtmasiga asosan milliy kino mahsulotlarini yaratish uchun xarajatlar — 105 mlrd so'm;
- milliy seriallar ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun respublika miqyosida faoliyat yurituvchi telekanallarga ajratiladigan subsideyalar — 12 mlrd so'm;
- "Ipak yo'li durdonasi" Toshkent xalqaro kinofestivalini o'tkazish uchun xarajatlar — 10 mlrd so'm;
- bolalar musiqa va san'at maktablari hamda madaniyat markazlarini milliy cholg'u asboblari bilan ta'minlash uchun xarajatlar — 7 mlrd 500 mln so'm;
- xorijiy kinokompaniyalar tomonidan O'zbekiston hududida kino ishlab chiqarish xarajatlariining bir qismini qoplash uchun xarajatlar — 5 mlrd so'm.

Vazirlik xarajatlari tarkibida, shu jumladan, qayta taqsimlanadigan mablag'lar ham nazarda tutilgan. Ularga obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar (280 mlrd so'm) hamda **Samarqand viloyatida ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar kiradi (10 mlrd so'm).**

² www.imv.uz

Bugungi kunda sport bo'yicha jami 414ta tashkilot mavjud. Bulardan bolalar va o'smirlar sport maktablari 254 ta, futbol akademiyalari 14ta, ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktablari 56ta, futbol bo'yicha bolalar va o'smirlar sport maktablari 14ta, oliy sport maxorat maktablari 19ta, olimpiya zaxiralari ixtisoslashtirilgan sport maktablari 4ta, O'zbekiston "Yoshlik" ko'ngilli sport jamiyati 15ta, boshqa tashkilotlar 22tani tashkil qiladi.

Madaniyat va sport sohasida amalga oshirilayotgan davlat siyosati xalqimizning ulkan intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, barqaror rivojlangan, jismonan baquvvat va ma'nan yetuk shaxslar jamiyatini barpo etish, aholining o'sib borayotgan ma'naviy va estetik ehtiyojlarini ta'minlash, madaniyat va sport muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. TS Malikov, O Olimjonov. [Moliya](#). - O'quv qo'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
2. Malikov T, Haydarov N. Budget daromadlari va xarajatlari. O'quv qo'llanma, Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA. 2007.
3. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.: "Iqtisod-moliya. 2019.
4. Malikov T, Haydarov N. Budget: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma, Toshkent "IQTISOD-MOLIYA. 2008.
5. У Ўроқов. [Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари](#)- Science and Education, 2022
6. У Ўроқов, Д Ускенбаева. [Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари](#) - Science and Education, 2022
7. Ўроқов У, Иргашев И, Файбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
8. Ўроқов У.Ю. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
9. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
10. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртларaro конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
11. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
12. У Ўроқов. [Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари](#).- Science and Education, 2023

13. G'aybullayev O, O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida budget tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
14. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
15. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси" илмий электрон журнали. 2020.
16. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления. "Молия" илмий журналы. 2022.
17. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
18. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
19. O'roqov U. Y., qizi Rahimova N. J. Investitsiyalarni jalb qilishda qulay investitsiya muhitining ahamiyati //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 3. – C. 229-239.
20. Dilmurod o'g'li, Fayzullayev Abdusamad, and Rahimova Nozimaxon Jahongirovna. "O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA ATROF-MUHITGA TA'SIRI." International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING 5.1 (2024): 19-23.
21. Vohidjonovich B. N., Jahongirovna R. N. RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA KAMBAG'ALLIK MUAMMOSI //ILM-FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 20-21.
22. Rahimova N. et al. Davlat xaridi munosabatlarining subyektlari //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 12. – C. 934-940.
23. Gulshoda B., Nozimaxon R. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA BYUDJET-SOLIQ TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – T. 44. – №. 2. – C. 178-183.